# MIRKOMIL MIRSHAROPOV



**Mirkomil Mirsharopov** (1900 - 1938) – o‘zbek harbiy sarkardasi. O‘zbek milliy qo‘shin tashkilotchilaridan biri. Yangi usuldagi ibtidoiy maktabda, so‘ng rus - tuzem maktabida (1914) o‘qigan. Turli kishilarning korxonalarida har xil vazifalarni bajargan. 1917-1918 yillarda Toshkentga kelib Eski shahar o‘zbek jangovar qismida jangchi bo‘lgan. Osipov isyonini bostirishda faol ishtirok etgan (1919). Toshkentda sakkiz oylik qo‘mondonlar tayyorlash kursida o‘qigan va Aktyubinsk frontida xizmat qilgan (1919). Turkiston qamalining yorib o‘tish ishtirokchisi. Turkiston alohida musulmon eskadronini shakllantirish boshlig‘i (1920), Xorazm Xalq respublikasi harbiy komissari (1920) va harbiy noziri va Xorazm Harbiy inqilobiy kengashi raisi(1920 yil, apreldan), Xorazm otliq polki qo‘mondoni. Mirkomil Mirsharopov Farg‘onada RKKA milliy qismlari boshlig‘i (1923), Xorazmda milliy qo‘shin tuzishga harakat qilgan. Xorazm Harbiy nozir muovini (1924). Milliy boyliklarni tashib ketilishiga qarshilik ko‘rsatgan. Turkman qarshilik ko‘rsatish harakati boshlig‘i Junaidxon bilan “Birlik shartnomasi”ni imzolagan (1921.5.11.), shu komissiya tarkibida ishlagani uchun aksilinqilobiy harakatda ayblanib ishdan chetlashtirilgan. Buxoro respublikasi Harbiy noziri (1924 yil oxirigacha). Moskvada harbiy akademiyada tahsil olgan (1925-1929), Samarqanddagi Alohida o‘zbek otliq askarlar polkining qo‘mondoni va komissari (1929-1932). 19-tog‘li otliq o‘zbek diviziyasi qo‘mondoni va komissari (1932-1935), Mo‘g‘ulistonda harbiy attashe (1935), Shimoliy Kavkaz tog‘ xalqlari harbiy okrugi Alohida otliq brigadasi qo‘mondoni va komissari (1936-1937). O‘zbekiston MIQ va O‘zbekiston Kompartiyasi a’zosi. Harbiy unvoni Kombrig.

Mirkomil Mirsharopov Maykop shahrida NKVD tomonidan qamoqqa olingan (1937.28.10) va o‘zbek dviziyasini milliylashtirish va bu diviziya yordamida O‘zbekistonni SSSRdan ajratib olishga uringan degan standart gumon bilan ayblangan. Mirkomil Mirsharopov 1938 yil 4 oktabrda oliy jazoga hukm qilingan.